

JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMINING INTEGRATSIYALASHUVI.

Abduvaliyeva Maftuna G'ulom qizi

Guliston davlat pedagogika instituti "Pedagogika" yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jarayonda mamlakatlar ta'lim tizimining integratsiyasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, integratsiya, Yaponiya ta'lim tizimi individual, bog'lanish, ta'sir, yoshlar, ko'nikma, jarayon, ilm, maqsad, o'qituvchi.

KIRISH

Ta'lim olish bu insonni yuksak cho'qqilarga yetaklovchi jarayondir. Ilm olish har bir mo'min va musulima uchun farzdir. Hadisi sharifda ham „Ilmni Chinga borib bo'lsa ham o'rganish“ lozimligi haqida aytib o'tilgan. Talim jarayoni — bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'rganish va o'qitish jarayonidir. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77- moddasida ta'lim va tarbiyaga oid tushunchalar keltirib o'tilgan. Ushbu moddada Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar. Mamlakatlar o'rtasida ta'lim tizimining integratsiyasi bu ta'lim sohasining ilg'or yutuqlaridan biri deyish mumkin. Mamlakatimizga so'nggi yillarda kirib kelgan kredit modul tizimi bu integratsiyaning bir ko'rinishi. Kredit modul tizimi dastlab XVIII va XIX asrlarda AqSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan. 1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot „kredit soati“ tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini - takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Integratsiya (lotincha integratio – tiklash, to'ldirish, integer – butun so'zidan)— bu suveren davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni. 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish. 1980-1990-yillarda bu tizim yanada takomillashdi va

fanlararo integratsiyalashgan ta'lim metodlari keng tarqala boshladi. San'at (Arts) sohasi STEM modeliga qo'shilishi esa 2000-yillarga kelib amalga oshirildi. San'at elementlarini qo'shish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish va ta'lim jarayonini yanada samarali qilish maqsad qilingan. Shu bilan STEAM ta'limi shakllandi va hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanildi. Ta'lim tizimining integratsiyalashuvini AQSH misolida ko'rish mumkin.

- STEAM -ta'lim dasturi.

- STEM ta'limi esa – bu fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering) va matematika (Mathematics) fanlariga integratsiyalashgan va o'zaro bog'liq tarzda yondashishni nazarda tutadi. Keyinchalik bu tizimga san'at (Art) va o'qish (Reading) elementlari qo'shib, u kengaytirilgan holda STEAM ta'limi deb yuritila boshlandi.

STEAM ta'limining zamonaviy ahamiyati Bugungi kunda STEAM ta'limi nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, balki umumta'lim maktablarida ham keng joriy etilmoqda. Bu yondashuv orqali talabalar amaliy loyihalar, ijodiy va tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, STEAM ta'limi raqamli biotexnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib, talabalar uchun zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlanish imkonini yaratmoqda.

O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida ko'plab sohalar qatori madaniy-gumanitar, ta'lim yo'nalishida ham hamkorlik rivojlanmoqda. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti ayni jarayonga faol hissa qo'shayotgan O'zbekistonning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri. Mazkur ta'lim dargohida ikki mamlakat yoshlari muloqotini har tomonlama faollashtirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri 6-noyabr kuni tashkil etilib, unda universitet yoshlari kunchiqar yurt madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Muhokama. Bugungi kunda ta'lim sohasidagi eng katta muammolardan biri bu bolalar, o'smirlar va yoshlar orasida ilm-fanga qiziqish uyg'otish ilmni keng reklama qilish kerak. Ilmni chiroyli qilib ko'rsatish zarur. Buni havaskorlarga ishonib topshirish kerak emas. Bunday ishlarning ham o'z ustalari bor. Marketologlar, ijtimoiy tarmoq mutaxassislari, sotsiologlar, degandek. Shunday mutaxassislarni jalb qilish kerak.

Ta'lim deganda hayolimizga faqat maktab, universitet, kollej, xullas muayyan bino keladi. Ammo zamonamizda ilm olishning ko'plab boshqa manbalari mavjud: televideniya, Internet, radio, jurnallar, gazetalar va albatta, kitoblar.

Ta'lim sifatini oshirish deganda, endi faqat maktab yoki universitetdagi ta'limni emas, Internetdagi ta'limni, televideniya, umuman OAVdagi ta'limni, kitob do'konlari orqali bo'ladigan ta'limni ham hisobga oladigan payt keldi.

Natija. Bugungi kunda tarbiya –ta'limning tayanchi ekanligi o'z isbotini topmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Masalan, online ta'lim, interaktiv darslar va boshqa innovatsion yondashuvlar orqali bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Zamonaviy texnologiyalarni afzalliklari haqida yoshlarga to'g'ri tushunchalar berilsa, yani ularga yaxshi tarbiya yoshlikdan mustahkam berib borilsa, yoshlarimiz orasidan bilimli, qat'iyatli, ma'suliyatli

insonlar yetishib chiqadi. Abdulla Avloniy bobomiz ham o'zlarining „Turkiy guliston yoxud axloq“ kitobida bejiz ushbu so'zlarni keltirib o'tmaganlar. „Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir“. Ta'lim va tarbiya uzluksiz jarayon sifatida inson hayotining har bir bosqichida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, shaxsning rivojlanishiga, uning ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog'lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog'lanish, ya'ni uzviylikni ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish, bu yoshlarimizni yanada shijoatli, bilimli bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan ta'lim tizimida shuningdek, yangi avlod tarbiyasida jahon fani va madaniyatining ilg'or yutuqlarini jamlagan, o'tmish ajdodlarimiz aql-zakovoti mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish vujudga keldi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning „biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz“ degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Muhtaram Prezidentimiz ham ushbu so'zlarni bejiz keltirib o'tmaganlar: „Agar mendan sizni nima qiynaydi?“ deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning tasdig'i shuki, bugungi jamiyatimizni, ilmiy yoshlar, o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan, fidoyi yoshlar yuksak marralarga olib chiqa oladi. Bundan asosiy maqsad yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdir. Zero, ta'limsiz tarbiyani, tarbiyasiz esa ta'limni tasavvur etib bo'lmaydi. Bu ikki tushunchaga qat'iy amal qilgan holda farzandlarimizni tarbiyalasak, ko'zlagan maqsadlarimizga yetamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi – 30.04.2023. 77-moddasi.
2. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonuni. 3-moddaning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)
3. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev -, Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.”-Toshkent -2017.
4. A. Avloniy -, „Turkiy guliston yoxud axloq.”-Toshkent matbaa uyi-2012.
5. Yusuf To'vasliy -, „Hikmatlar xazinasi “-Toshkent -2020.
6. A. K. Munavvarov -, „Oila pedagogikasi.”- Toshkent -, O'qituvchi “-1994.